

MATERIAL SHAKLIGA KO‘RA LINGVISTIK EKSPERTIZA TURLARI

Saidahmadov Shuhrat Baxtiyor o‘g‘li,*Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchi**Innovatsion texnologiyalar universiteti 230103, Qoraqalpog‘iston respublikasi, Nukus, O‘zbekiston shoh kochasi 33\1k**E-mail: shuhratsaidahmadov@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik ekspertizaning material shakliga ko‘ra turlari tahlil qilinadi. Og‘zaki, yozma hamda rasm va tasvirlar asosidagi ekspertiza xususiyatlari yoritiladi. Nutqiy vaziyat, pragmatik tahlil va noverbal vositalarning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, yozma matnlarning shakliy va mazmuniy ekspertizasi, ularning milliy-madaniy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot lingvistik ekspertizaning obyektivligini ta‘minlash omillarini aniqlashga xizmat qiladi va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: lingvistik ekspertiza, og‘zaki nutq, yozma matn, noverbal vositalar, pragmatik tahlil, nutqiy vaziyat, matn tahlili.

Аннотация. В данной статье анализируются виды лингвистической экспертизы в зависимости от формы представленного материала. Рассматриваются особенности экспертизы устной, письменной речи, а также изображений и визуальных материалов. Обосновывается значение речевой ситуации, прагматического анализа и невербальных средств. Также изучаются формальная и содержательная экспертиза письменных текстов, их национально-культурные особенности. Исследование направлено на выявление факторов, обеспечивающих объективность лингвистической экспертизы, и имеет практическое значение.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, устная речь, письменный текст, невербальные средства, прагматический анализ, речевая ситуация, анализ текста.

Abstract. This article analyzes the types of linguistic expertise based on the form of the material presented. It examines the features of expertise in oral and written speech, as well as images and visual materials. The importance of speech context, pragmatic analysis, and nonverbal means is substantiated. In addition, formal and semantic analysis of written texts and their national-cultural characteristics are considered. The study aims to identify factors ensuring the objectivity of linguistic expertise and has practical significance.

Keywords: linguistic expertise, oral speech, written text, nonverbal means, pragmatic analysis, speech situation, text analysis.

Lingvistik ekspertiza bugungi kunda sud-huquq, ommaviy kommunikatsiya va ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim o‘rin egallaydi. U turli nutqiy materiallar asosida olib borilib, ularning mazmuni, shakli va kommunikativ yo‘nalishini aniqlashga xizmat qiladi. Nutq mahsuli bo‘lgan materiallar og‘zaki, yozma hamda vizual ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bois lingvistik ekspertiza jarayonida materialning shakliy xususiyatlarini inobatga olish ilmiy asoslangan va obyektiv xulosaga kelishda muhim ahamiyat kasb etadi

Lingvistik ekspertizalar tadqiqot uchun taqdim etilgan material asosida olib boriladi. Nutqiy faoliyat mahsuli bo‘lgan material turli xil shakllarda taqdim etiladi. Materialning shakily ko‘rinishiga ko‘ra lingvistik ekspertizalarning turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Og‘zaki matnlarning lingvistik ekspertizasi.

2. Yozma matnlarning lingvistik ekspertizasi.
3. Rasm va tasvirlarning lingvistik ekspertizasi.

1. Ogʻzaki matnlarning lingvistik ekspertizasi. Ogʻzaki matnlar audio yoki videoyozuv holida lingvistik ekspertizaga taqdim etilishi mumkin. Ogʻzaki nutq tahlilida audio va videoyozuvlar asosiy manba hisoblanadi. Rossiyalik taniqli ekspert E.I.Galyashina taʼkidlashicha, ogʻzaki nutqni stenogramma (matn) holatiga keltirish jarayonida nutqning oʻziga xos intonatsion manzarasi, puzalar va urgʻular yoʻqoladi, bu esa ekspertiza xulosasining xolisligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Baʼzi hollarda huquqiy maqsadlarda haqorat qilish yoki boshqa mazmundagi ogʻzaki matnlar guvohlar koʻrsatmasi asosida stenogramma shaklida taqdim etiladi. Stenogramma suhbat jarayonida bevosita qatnashgan xolish guvohlar ishtirokida tuziladi. Biroq ogʻzaki nutqni stenogramma asosida tahlil qilganda nutqiy aktga obyektiv baho berish, matnni pragmatik tahlil qilish imkoni boʻlmaydi. Nutqiy vaziyat va diskurs lingvistik ekspertizasining xolisligini taʼminlashda muhim omil hisoblanadi. Chunki har qanday nutqiy birlikning kommunikativ maʼnosi nutq vaziyati bilan bogʻliq holda reallashadi. Matnning nafaqat semantik tahlili, balki uning pragmatik tahlili ham ekspertiza xulosasiga taʼsir oʻtkazishi mumkin. Gʻarbiy Yevropa sud lingvistikasi maktabi vakili Jon Olsson (John Olsson) fikricha, ogʻzaki nutq ekspertizasida "idiosinkraziya" (shaxsga xos til xususiyatlari) audioyozuv orqali aniqroq namoyon boʻladi. Videoyozuvlar esa ekspertga noverbal aloqa vositalarini (kinezika va proksemika) tahlil qilish imkonini beradi. Zero, nutqiy vaziyat (context of situation) va diskursiv tahlil matnning perlokutiv effektini (tinglovchiga taʼsirini) aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Audio yoki videoyozuv holida lingvistik ekspertizaga taqdim qilingan materiallar asosida nutqiy akt mohiyati obyektiv baholanishi mumkin. Audioyozuvda ovoz toni, uning past yoki balandligi, gap urgʻusi kabi aksentologik birliklarni aniq baholash imkoni yaratiladi. Ogʻzaki nutqni videoyozuv yordamida tahlil qilish ekspertga qoʻshimcha imkoniyatlar taqdim etadi. Xususan, videoyozuv asosida nutq egasining vizual holatini, nigohlar, mimika va jestlar yordamida uzatayotgan noverbal nutqiy axborotlarini ham baholash mumkin. Shuningdek, noverbal nutqiy holatlar faqat videoyozuv asosida tahlil etiladi va baholanadi.

Baʼzi manbalarda audio va videoyozuvlar ogʻzaki va yozma nutqdanfarqli nutq mahsuli sifatida qaraladi, Yozma muammoli va anonim yozishmalarning lingvistik ekspertizasi xususida tadqiqotlar olib borgan D.Toʻrayeva shaxsiy yozishmalarni quyidagi turlarga ajratishni tavsiya qiladi: "yozuvchi tomonidan oldindan oʻylangan, qayta semantik jihatdan sintez qilingan va aytmoqchi boʻlgan fikrining eng yaxshi variantlaridan birini bayon etishga moʻljallangan nutqi. U toʻrt shaklda boʻlishi mumkin: 1. Qoʻlyozma shakldagi yozishmalar; 2. Elektron-bosma shakldagi yozishmalar; 3. Audio shakldagi yozishmalar; 4. Video shakldagi yozishmalar" [1]. D.Toʻrayeva audio va videoyozuvlarga ham yozma nutq sifatida yondashishni maʼqul koʻrgan. Bizning nazarimizda ogʻzaki yoki

yozma nutqning hosil bo'lish jarayoni ularni tasniflashdagi birinchi mezon bo'lishi kerak. Uzatilayotgan axborot nutq organlari yordamida fizik to'liq holida namoyon bo'lsa og'zaki nutq, nutq organlari ishtirok etmasdan qo'l yozuvi yoki bosma yozuv shaklida axborot taqdim etilsa yozma nutq deb baholash to'g'riroqdir. Audio yoki videoyozuvlar nutqning hosil bo'lish jarayoni bilan bog'liq emas. Audio va videoyozuvlar nutq organlari yordamida hosil qilingan nutq mahsulini ovozni qayd etuvchi yoki tasvirni qayd etuvchi vosita orqali saqlash usulidir.

Lingvistik ekspertiza materiallari o'ta shaxsiy yoki maxfiy bo'lishi mumkin. Shu bois audio yoki videoyozuvlarni saqlash, ularning tarqalib ketmaslik choralarini ko'rish uchun ekspert-mutaxassislar shaxsan mas'ul hisoblanadi. Beparvolik, mas'uliyatsizlik yoki qasddan ekspertiza materiallarini tarqatganlik uchun qonunchilikda javobgarlik belgilangan.

2. Yozma matnlarning lingvistik ekspertizasi. Lingvistik ekspertizalarning asosiy qismini yozma materiallar ustida olib boriladigan tadqiqotlar tashkil etadi. Yozma matnlar qo'lyozma va bosma shaklda taqdim etiladi. Qo'lyozma matnlar bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar xatshunoslik ekspertizasi deb yuritiladi. Mazkur ekspertizada, oldingi bobda aytilganidek, lingvistik ekspertiza tadqiqotlari obyektidan chiqish, kimyoviy, psixologik va boshqa fanlarga doir tadqiqot usullaridan foydalanish holatlari ham uchraydi. Yozma matnlar ekspertizasi ikki yo'nalishda: **avtorshunoslik** (muallifni aniqlash) va **semantik-shakliy** tahlil (matn mazmunini izohlash) yo'nalishlarida olib boriladi. Polshalik professor Krzysztof Kredens yozma nutqning raqamli transformatsiyasi (elektron xatlar, messenjerlar) lingvistik ekspertiza oldiga yangi vazifalarni qo'yayotganini, bunda "til barmoq izi" (linguistic fingerprint) tushunchasi muhimligini asoslaydi.

Bosma shakldagi yozma matnlar turli xil maqsadlarda lingvistik ekspertizaga material bo'la oladi. Matnni tahrirlash, imloviy va uslubiy xatolarini bartaraf etish, matnda qo'llanilgan lug'aviy birliklarning adresantga mosligini aniqlash, matning jarangdorligini va jozibadorligini oshirish (shakliy lingvistik ekspertizalar); matn mazmunini izohlash, shaxsga nisbatan haqorat, tahqirlash, obro'sizlantirish kabi unsurlar mavjud yoki mavjud emasligiga aniqlik kiritish, matn muallifini aniqlash, siyosiy tuzumga, davlat xavfsizligiga qarshi g'oyalar mavjudligini aniqlash kabi (mazmuniy lingvistik ekspertizalar) maqsadlarda yozma matnlar lingvistik ekspertiza qilinishi mumkin. Aynan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda lingvistik ekspertizaning shakliy yoki mazmuniy turi belgilanadi.

Har bir millatga xos matnlar shu millatning madaniy va mental xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shu bois o'zbekcha matnlar uchun qo'llaniladiga tadqiqot metodlari ham o'ziga xos bo'lishi lozim. Bu xususda K.Musulmonova shunday yozadi: "O'zbek yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishda etnik xoslik, mentalitet kabi jihatlar yaqqol bo'rtib turadi. Boisi turli vulgar elementlari, evfemik vositalar o'zbek yozma matnlarida baho darajasi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ayrim vulgar elementlarning ijtimoiy

xavflilik darajasi yuqori bo'lsa, ayrimlarida esa muallifning jismoniy, emotsional va ahloqiy sifatlaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladi va bu ijtimoiy xavfli deb baholanmaydi". Demak, har qanday matn lingvistik ekspertiza qilinganda til egasi bo'lgan xalqning madaniy, mental, etnik xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik muhim omil hisoblanadi.

3. Rasm va tasvirlarning lingvistik ekspertizasi. Noverbal nutq tana harakatlar, ya'ni, jestlar, nigohlar, mimika kabi kinetik vositalar yordamida ifodalanadi. Mazkur nutq shaklini lingvistik ekspertizaga rasmlar yoki videotasvirlar orqali qayd etilgan holda taqdim etiladi. Noverbal nutq orqali ko'pincha haqorat, shaxs sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish, shaxsni obro'sizlantirish kabi ma'nolar ifodalanishi mumkin.

Zamonaviy kommunikatsiyada tasvir va matn uyg'unligi (kreolashgan matnlar) ko'p uchraydi. **A.N.Baranov** tasvirlar tarkibidagi noverbal belgilarni "vizual metaforalar" deb ataydi va ularning lingvistik ekspertiza doirasida tahlil qilinishi zarurligini ta'kidlaydi.

Mazkur ma'nolar verbal yoki noverbal shaklda ifodalanadi. Bu xususda N.Najmidinova shunday yozadi: "Haqorat qilish (og'zaki, yozma) yoki xatti-harakat (tupurish, nomaqbul imo-ishora (nomaqbul ishoralariga odamlar orasida haqorat sifatida qabul qilinadigan harakatlar, masalan, ko'rsatkich barmoqni peshonaning yon tomoniga qo'yib, barmoqni aylantirish "*aqli past, jinni*" ma'nosini bildiradi, barmoqlar orqali odamning jinsiy a'zolari va jinsiy yaqinlik qilishni anglatuvchi ishoralar) shaklida ham bo'lishi mumkin". Mazkur imo-ishoralar, jestlar va harakatlar tasvirga yoki suratga olinib, ekspertizaga taqdim etilishi mumkin. Ekspert surat yoki tasvir (video)ga qarab, imo-ishora va harakatlarni tahlil qilgan holda noverbal nutq orqali qanday axborot taqdim etilayotganligini baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, lingvistik ekspertiza materialning shakliga ko'ra turlicha yondashuvlarni talab qiladi. Og'zaki nutqni tahlil qilishda audio va videoyozuvlar, yozma matnlarni o'rganishda esa ularning shakliy va mazmuniy jihatlari muhim o'rin tutadi. Rasm va tasvirlar orqali ifodalangan noverbal vositalar ham kommunikativ ma'noni aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, har bir matnni tahlil qilishda milliy-madaniy va pragmatik omillarni hisobga olish lingvistik ekspertizaning xolisligi va aniqligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Галяшина Е. И. Судебная лингвистическая экспертиза: учебник. – Москва: Проспект, 2021. – 424 с.
2. Olsson J., Luchjenbroers J. Forensic Linguistics. – 4th Edition. – London: Bloomsbury Academic, 2022. – 256 p.
3. To'rayeva D.A. Nutq hududiy xoslanishining lingvistik ekspertizasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 120 b. – B. 5.
4. Kredens K. Corpus Linguistics in Authorship Analysis // The Routledge Handbook of Forensic Linguistics. – London, 2020. – pp. 450-465.

5. Musulmonova K.X. O‘zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o‘tkazish maqsadi va asoslari // International conference. “Wissenschaftliche Ergebnisse und Errungenschaften” (München, Deutschland dezember 25, 2020) DOI 10.36074/25.12.2020.v3.35. 97-101 p
6. Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 592 с.
7. Najmidinova N.Y. O‘zbek tilidagi “shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli ifodalarning lingvistik ekspertizasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. avtoref. – Qo‘qon, 2025. – B. 14.

